

Miraliyeva Sevara Jo‘rabek qizi

Toshkent davlat yuridik

universiteti magistranti,

Sirdaryo yuridik texnikumi o‘qituvchisi

Telefon: +998948899720

Pochta manzili: sevaramiraliyeva1020@gmail.com

ADVOKAT TOMONIDAN INTIZOMIY HUQUQBUZARLIK SODIR ETILISHIGA SABAB BO‘LUVCHI OMILLAR

Annotatsiya: Jamiyatda advokatlarning roli kuchaygani sari ulardan mas’uliyatlilik, javobgarlik hissining yuqori bo‘lishi ham kun talabiga aylangan. Xususan, advokat o‘z kasbiga mas’uliyat bilan yondashmas, sovuqqon munosabatda bo‘lar ekan, shuningdek, kasb etika qoidalarini buzar, advokatlik sirini saqlamas, advokat qasamyodiga nomuvofiq xatti-harakatlar qilgan ekan, buning oxiri unga nisbatan intizomiy ish ochilishi va javobgarlikka tortilishi bilan yakunlanishi tayin. Shunday ekan, mazkur tadqiqotdan maqsad qanday asoslarga ko‘ra advokatlarga intizomiy ish ochilishini o‘rganish, bu kabi omillarni bartaraf etish va qayta sodir etilmasligi uchun zarur chora-tadbirlarini ko‘rish hamda kelgusida advokatlar tomonidan sodir etiladigan intizomiy huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar berishdan iboratdir.

Tayanch so‘zlar: advokat, intizomiy huquqbuzarlik, intizomiy javobgarlik, intizomiy ish yuritish, intizomiy jazoga sabab bo‘luvchi omillar, advokatlik siri, advokat qasamyodi.

ФАКТОРЫ, ПРИВОДЯЩИЕ К СОВЕРШЕНИЮ АДВОКАТОМ ДИСЦИПЛИНАРНОГО ПРОСТУПКА

Аннотация: По мере того, как роль адвокатов в обществе росла, для них стало все более важным иметь большее чувство ответственности и подотчетности. В частности, если адвокат не относится к своей профессии ответственно, проявляет хладнокровие, нарушает правила профессиональной этики, не хранит адвокатскую тайну, действует не в соответствии с присягой адвоката, это неизбежно влечет за собой возбуждение в отношении него дисциплинарного производства и привлечение к ответственности. Поэтому целью настоящего исследования является изучение оснований, по которым возбуждается дисциплинарное производство в отношении адвокатов, принятие необходимых мер по устранению указанных факторов и недопущению их повторения, а также внесение предложений по совершенствованию законодательства в целях предупреждения в дальнейшем совершения адвокатами дисциплинарных проступков.

Ключевые слова: адвокат, дисциплинарный проступок, дисциплинарная ответственность, дисциплинарное производство, факторы, влекущие дисциплинарное взыскание, адвокатская тайна, присяга адвоката.

FACTORS LEADING TO A LAWYER (ADVOCATE) COMMITTING A DISCIPLINARY OFFENSE

Annotation: As the role of lawyers in society has increased, it has become necessary for them to have a high sense of responsibility and accountability. In particular, if a lawyer does not approach his profession responsibly, behaves coldly, violates the rules of professional ethics,

does not maintain legal secrecy, and acts inconsistently with the lawyer's oath, this will inevitably result in disciplinary proceedings being opened against him and his liability being imposed. Therefore, the purpose of this study is to study the grounds on which disciplinary proceedings are opened against lawyers, to take the necessary measures to eliminate such factors and prevent their recurrence, and to make proposals for improving the legislation to prevent disciplinary offenses committed by lawyers in the future.

Keywords: lawyer, advocate, disciplinary offense, disciplinary responsibility, disciplinary proceedings, factors leading to disciplinary punishment, legal secrecy, lawyer's oath.

Huquq vujudga kelishining asosiy sababi tartib o'rnatish, ya'ni jamiyatda kaos (tartibsizlik)ni oldini olish maqsadida inson huquq va majburiyatlarining huquq normasida qat'iy belgilab qo'yilishidir. Belgilaganda ham, bir shaxsning huquqlari boshqa shaxsning huquqlariga daxl qilmasligi kerak.

Umuman olganda, qonunlar – huquq normalari xalq manfaatini ko'zlab chiqarilishi lozim. Ya'ni ular insonlar huquq va manfaatlarini himoya qilishga xizmat qilishi kerak. Bunday himoya vakillik orqali amalga oshirilishi mumkin. Albatta, bunda professional vakillik sifatida advokatlikning o'rni katta va muhim ahamiyatga ega. Advokatlik azaldan muhim kasb bo'lib kelgan va hozirga qadar advokatlarga ehtiyoj ham ortib bormoqda. Shu sabab ham advokatlikka talabgorlarga ko'plab imtiyozlar berilmoqda. Shuningdek, advokatlarning javobgarlik masalasini ham unutmazlik lozim. Advokat sha'ni, qadr-qimmatini, obro'sini saqlab, unga munosib bo'lish har qanday advokatdan talab etiladi. Bularga dog' tushiradigan xatti-harakat yoki harakatsizlikni sodir etish intizomiy javobgarlikka tortishga sabab bo'lishi mumkin.

Avvalo, bunday huquqbuzarlikka yo'l qo'yilishiga qanday omillar ta'sir o'tkazayotganini tahlil qilib chiqish lozim. O'zbekiston Respublikasining "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni 14-moddasida qonunchilik talablari, Advokatning kasb etikasi qoidalari, advokatlik siri va advokat qasamyodini buzish¹ advokatga nisbatan intizomiy ish yuritish ishlari ochilishiga sabab bo'luvchi omillar sifatida ko'rsatilgan.

Qonunchilik talablari deganda advokat amal qilishi kerak bo'lgan normalar tushuniladi, ya'ni ularni buzish yoki chetlab o'tish advokatni intizomiy javobgar qilish uchun asos sanaladi. Ushbu qonunchilik talablari quyidagilardan iborat:

- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi;
- Mehnat kodeksi – bunda advokatga xodim sifatida intizomiy jazo chorasi qo'llaniladi;
- "Advokatura to'g'risida"gi qonun;
- "Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida"gi qonun va boshqa qonun hujjatlari.

Advokatning kasb-etikasi qoidalari O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi tomonidan chiqarilgan bo'lib, 7 bob va 65 qoidadan iborat. Unda umumiy qoidalar, advokatning kasbiy nufuzi va shaxsiy qadr-qimmatini, advokatlarning o'zaro munosabatlari, advokatning ishonch bildiruvchi shaxs (himoya ostidagi shaxs) bilan munosabatlari, advokatning huquqni muhofaza qiluvchi organlar va o'zga tashkilotlar bilan, advokatlar palatasi, malaka komissiyalari bilan munosabatlari va yakunlovchi qoidalar belgilangan.

¹ O'zbekiston Respublikasining 27.12.1996 yilda 349-I-son bilan qabul qilingan "Advokatura to'g'risida"gi Qonuni 14-moddasi.

Huquq normalari yozilganligi, nashr qilinganligi, ya'ni rasmiy tarzda davlat tomonidan o'rnatilganligi, axloq normalari esa asosan jamiyatning ijtimoiy ongida mujassam bo'lganligiga qaramasdan, axloq ham, huquq ham deyarli barcha munosabatlarni o'z ichiga oladigan yoyiq xulq-atvor qoidalari tizimini tashkil etadi². Axloq normalari o'zi huquq normalaridan keyin turuvchi yurish-turish qoidalari hisoblanadi. Ularga rioya qilmaslik ham xuddi huquq normalari kabi oqibat keltirib chiqaradi hamda yuridik kuchi jihatidan huquq normalaridan keyingi o'rinda turuvchi normalar jamlanmasi hisoblanadi. Shunga asoslanib, advokatning kasb-etikasi qoidalari ishlab chiqilgan.

Etika bo'yicha izohli lug'atda kasb etikasi tushunchasiga quyidagicha ta'rif keltirilgan:

kasb etikasi – bu odamlarning kasbiy faoliyatidan kelib chiqadigan o'zaro munosabatlarning axloqiy xarakterini ta'minlaydigan qonuniyatlardir.

Belarussiya davlatida Advokatning kasb etikasi qoidalari Adliya vazirligi qarori bilan tasdiqlanadi. Bunda farqli jihati advokatlik siri to'g'risidagi qoidalar³ kasb etika qoidalari alohida bob sifatida kiritilgan. O'zbekistondagi amaldagi Advokatning kasb etikasi qoidalari esa advokatlik siri advokatning kasbiy nufuzi va shaxsiy qasr-qimmatini bobida aks etgan.

Buyuk Britaniya "Advokatlar, Yevropa hamda boshqa xorij advokatlarining axloq kodeksi"ga ko'ra, agar shaxsiy manfaatlar to'qnashuvi yoki bunday mojaroning jiddiy xavfi mavjud bo'lsa⁴, advokat bunday holatlarda ishdan bosh tortishi kerak. Shaxsiy manfaatlar to'qnashuvi Buyuk Britaniya Axloq kodeksida alohida bob sifatida kiritilgan. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Advokatning kasb etikasi qoidalari ham shaxsiy manfaatlar to'qnashuvini alohida bob sifatida kiritish taklif etiladi.

Advokatlik siri advokat va ishonch bildiruvchi shaxs (himoyasi ostidagi shaxs) o'rtasida ishga doir har qanday ma'lumot hisoblanadi, xoh u bitim (shartnoma), xoh ishonch bildiruvchi shaxsning shaxsiga doir ma'lumotlar, xoh ishonch bildiruvchi shaxsning advokatga bergan ko'rsatuvlari bo'lsin – barchasi advokatlik siri sanaladi. Bulardan tashqari **Germaniyada** raqamli ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha ham ham qat'iy standartlar belgilangan, shu jumladan, ma'lumotlarni shifrlash va unga kirishni cheklash talablari electron formatda joriy qilingan. Bu nafaqat advokatlik tuzilmalarining ichki standartlari, balki shaxsiy ma'lumotlarni qayta ishlashni tartibga soluvchi qonunlar bilan ham ta'minlanadi. Masalan, raqamli ma'lumotlar almashinuvida maxfiylik kafolatlarini yanada kuchaytiradigan Yevropa Ittifoqining ma'lumotlarni himoya qilish bo'yicha umumiy reglamenti (GDPR).⁵ Advokatlarning kasbiy etika kodeksi (BRAO) 43-bandiga binoan advokat yuridik yordam ko'rsatish jarayonida olingan barcha ma'lumotlarning maxfiyligini saqlashi shart. Ushbu majburiyatni bajarmaslik intizomiy

² Salomov B. O'zbekistonda advokatlik faoliyati. – Toshkent.: Adolat, 1-2 tom, 2000.

³ Правила профессиональной этики адвоката. Утверждено Постановление Министерства юстиции Республики Беларусь 27.06.2001 № 15 (в редакции постановления Министерства юстиции Республики Беларусь 17.03.2008 № 17) <https://bit.ly/434YMea>

⁴ SRA Code of Conduct for Solicitors, RELs and RFLs—for in-house lawyers. Copyright © 2025 LexisNexis Published by a LexisNexis Risk & Compliance expert. <https://bit.ly/3CP7ef0>

⁵ К.Хакимова. От теории к практике: адвокатская тайна и доступность юридической помощи в двух правовых системах. – «Общества и инновации», 2025.

javobgarlikka, hatto jinoiy javobgarlikka olib kelishi mumkin⁶. Shu jumladan, ushbu qoida advokatlik tuzilmasining boshqa a'zolariga: advokat stajyori, yordamchilariga ham taalluqli hisoblanadi va orqali ma'lumotlarning tashqariga chiqish xavfi kamayadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, advokatlik sirini saqlash – bu advokat va ishonch bildiruvchi o'rtasidagi ishonch munosabatlarining asosidir. advokat va ishonch bildiruvchi o'rtasidagi sir advokat o'z kasbiy majburiyat va vazifalarini bajarish davomida olgan barcha ma'lumotlarni qamrab oladi va ishonch bildiruvchining huquqlarini himoya qilish kafolati bo'lib xizmat qiladi.

Advokat qasamyodi. Germaniya Federal Advokatlar Qonuni (BRAO) advokat advokatlar kengashi oldida quyidagicha qasamyod qabul qiladi:

“Konstitutsiyaviy tuzumni qo'llab-quvvatlashga va advokatlik burchini sodiqlik bilan bajarishga Qodir va O'zi biluvchi Alloh nomiga qasamyod qilaman, bu ishda Xudoyim menga yordam ber”.

Agar qonun diniy jamoa a'zolariga qasamyod o'rniga boshqa tasdiqlash formulasidan foydalanishga ruxsat bersa, bunday diniy jamoaning har qanday a'zosi ushbu tasdiqlash formulasini o'qishi mumkin.

Imon yoki vijdon tufayli qasamyod qilishni istamagan har qanday kishi quyidagi qasamyod qilishi kerak:

– Konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilishga, advokatlik burchini vijdonan bajarishga va'da beraman⁷.

O'zbekiston Respublikasida har bir advokat vazifasiga kirishishidan oldin quyidagi talablarni o'z ichiga oladigan Qasamyod qabul qiladi:

- kasbiy burchni halol va vijdonan bajarish;
- inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish;
- advokatlik sirini saqlash;
- O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga rioya qilish⁸.

Xulosa qiladigan bo'lsak, agar advokat tomonidan yuqorida sanab o'tilgan qonunchilik talablari, advokatning kasb-etikasi qoidalari, advokatlik siri hamda advokat qasamyodiga rioya qilinsa, advokat ustidan intizomiy ish ochilmaydi. Agar bulardan birortasi buziladigan bo'lsa, unda advokatni intizomiy javobgarlikka tortish masalasi ko'riladi va bu malaka komissiyalari tomonidan intizomiy jazo tayinlashga asos bo'ladi. Shaxsiy manfaatlar to'qnashuvi Buyuk Britaniya Axloq kodeksida alohida bob sifatida kiritilgan. Amaldagi O'zbekiston Respublikasi Advokatning kasb etikasi qoidalariga ham shaxsiy manfaatlar to'qnashuvini alohida bob sifatida kiritish taklif etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

⁶ The Federal Lawyers' Act (Bunderrechtsanwaltsordnung - BRAO), Chapter 3, Part 1, §43.

⁷ https://www.buzer.de/12a_BRAO.htm

⁸ O'zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to'g'risida”gi 25.12.1998 yildagi 721-I-sonli Qonuni 3-moddasi.

1. Xalqaro hujjatlar:

1.1. SRA Code of Conduct for Solicitors, RELs and RFLs—for in-house lawyers. Copyright © 2025 LexisNexis Published by a LexisNexis Risk & Compliance expert.

1.2. Правила профессиональной этики адвоката. Утверждено Постановление Министерства юстиции Республики Беларусь 27.06.2001 № 15 (в редакции постановления Министерства юстиции Республики Беларусь 17.03.2008 № 17).

1.3. The Federal Lawyers’ Act (Bunderrechtsanwaltsordnung - BRAO).

2. Normativ-huquqiy hujjatlar:

2.1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, 30.04.2023 y.

2.2. O‘zbekiston Respublikasining 27.12.1996 yilda 349-I-son bilan qabul qilingan “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni.

2.3. O‘zbekiston Respublikasining “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi 25.12.1998 yildagi 721-I-sonli Qonuni.

2.4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.

2.5. Advokat odob axloq qoidalari.

3. Monografiya, ilmiy adabiyotlar:

3.1. К.Хакимова. От теории к практике: адвокатская тайна и доступность юридической помощи в двух правовых системах. – «Общества и инновации», 2025.

3.2. Salomov B. O‘zbekistonda advokatlik faoliyati. – Toshkent.: Adolat, 1-2 tom, 2000.

3.3. Zhenina M. A. Advokatning intizomiy javobgarligining nazariy va amaliy muammolari: referat. dis. ...kand. qonuniy Sci.- M., 2009.

3.4. Qodiraliyev, S. Advokatning intizomiy javobgarligi masalalari. 2022. <https://inlibrary.uz/index.php/improvement-law-institute/article/view/16667>

3.5. Dilshodbek Nurumov Адвокатская дисциплинарная ответственность в Республике Узбекистан 4 № 7/S (2023): Спецвыпуск междисциплинарного электронного научного журнала «Общество и инновации».

4. Elektron manbalar:

4.1. <https://lex.uz>

4.2. <https://constitution.uz>

4.3 <https://uscode.house.gov>

4.4. <https://www.lexisnexis.com/en-us/gateway.page>

4.5. <https://www.lawlibrary.ru>

4.6. <https://www.norma.uz>